


ISLOMJON QO'CHQOROV

SENI  
IZLAYMAN



BIRINCHI

KITOBIM

0'22  
Q 97

SHE'RLAR

**Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

**ilgarigi berilmalar miqdori** \_\_\_\_\_

821.612.133-


Bozsharov

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
"IJOD" JAMOAT FONDI

ISLOMJON QO'CHQOROV

SENI  
IZLAYMAN

*She'rlar*



TOSHKENT

"ADABIYOT"

2020


Yozuvchilar uchun ishlash uchun  
"IJOD" JAMOAT FONDI

Nashr uchun mas'ul:  
**Sirojiddin SAYYID,**  
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi*

Mas'ul muharrirlar:  
**Shodmonqul SALOM, Nargiza ASADOVA**

Yoshlik zangor fasl. Bu pallada tuyg'ular kama-lakrang tus oladi, nigohlarga sir inadi. Shoir Islom Qo'chqorovning she'rлarini o'qib, yoshlikning ana shunday begard, jo'shqin, askariy satrlariga duch kelasiz. Yurt himoyasida o't-olov bo'lgan yigit qalbi ishq ko'yida bemajoldir, oshuftaholdir. Bu uning yuragi oshiqligidan darak. Ushbu mo'jaz to'plamdan o'rin olgan she'rлarda shoirning ana shunday qalbga yaqin izhorlaridan bahramand bo'lasiz.

*Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*



© I. Qo'chqorov, 2020  
© "Adabiyot", 2020

## **YOZAYOTGANIGA ISHONGAN IJODKOR**

She'rga izoh na kerak, sharh nechun? U Xudojonning ko'zyoshday bir tabiiy hodisasi, shubhasiz, mo'jizasi. Ammo goho biror yaxshi she'r bergen hisni birov larga ulashging kela-di. Bo'lmasa, "yorilib" ketasan odam.

Islomjon Qo'chqorov ismli uka-do'stning bir qancha she'rlarini o'qib o'tirib shu gaplar xayoldan o'tdi. Uning yozganlari, ko'pchilik tahlillarda mualliflar ko'pam ma'nosiga yet-may ishlata digan "o'ziga xos" deyiluvchi ta'rifdan xoliday tuyuldi menga. Ya'ni, uning she'rlari "o'ziga xos" emas. Qandaydir ayri-cha, jangovar ruhda, tag'in jo'mard va ezg'in hislar kesishib, nozik va qiziq yechimlarda kelgandek. Xullas, bu satrlar qoshidan jim o'tib ketolmaysan.

*Sherga ov qismatdir sherligi uchun,*

*El behikmat emas birligi uchun.*

*Yigitga Vatanni asramoq – taqdir!*

*Qo'rg'onligi uchun, erligi uchun!*

Yozayotganiga ishongan ijodkor baxtiyor-dir. Aksincha esa, bu qalam tutgan kas od-

diy kosibga aylanib qoladi. She'r esa kosibni emas, oshiqni suyadi, o'zini bag'ishlaydigan yurakka uya quradi.

*Bo'lman hech qachon ishq taqdiri hal,*

*Avji saratonda nechun muzlayman.*

*Dunyo kaftimchalik toraygan mahal*

*Seni izlayman...*

Birovga bir ishni ishonib topshirgan odam, o'sha ezgu ishning amalga oshganini boshqa birovlardan eshitsa, ichidan mamnun xo'r-siniq keladi, qoniqish tuyadi. Islomning yuzlab she'rlari bor ekan. Hammasini ko'rganim yo'q. Biroq umidli bir ko'ngil odamining qadam to-vushlarini eshitdim. Ko'ksimdan mamnun nafas keldi, qoniqish-la xursand bo'lib qo'ydim.

Endi! Jiddiylashish shart! Ijodni buncha anglab, his qilib she'r yozishgacha, uning kim-largadir ma'qul ekanini bilishgacha kelindimi, She'r bilan qat'iy shug'ullanish lozim. Bo'lmasa, gardanimizda uzib bo'lmas qarz qoladi.

Islomjonga yorug' ijodiy yo'l tilab,

**Shodmonqul SALOM,**

*O'zbekiston Yozuvchilar*

*uyushmasi a'zosi.*

**VATAN**

Tilimni chayon chaqsa,  
 dilim chin ayt deb tursa,  
 Ichimda bir hur ovoz,  
 o'zingga qayt deb tursa.

Tushimda Temur bobom ot chopib,  
 "hayt!" deb tursa,  
 Daralar sergak tortsa,  
 men esa uyg'onmasam.

Mudrab yotgan qonlarim  
 tomirimda gupursa,  
 Xotirim, kim eding,  
 deb mudom so'roqlab tursa.

Ko'kdagi behisob ko'z  
 kimligim ko'rib tursa,  
 Koinot to'lg'onsa-yu,  
 men esa to'lg'onmasam.

Bobomning peshonasi  
 egatdek chiziq-chiziq,  
 O'tmishi qulf osilgan  
 sandiqdek qiziq-qiziq,  
 Vaqt hukmida tuyg'ular,  
 rishtalar uzuq-yuluq,  
 G'aflat mendan tonsa-yu,  
 men undan tonolmasam.

diy kosibga aylanib qoledi. She'r esa kosibni  
“Vatan! Vatan!” deyman-u,  
kalomim soxta, siniq,  
Uning hovuch tuprog'i  
ma'volari oq, tiniq.

Bu diyorning mash'ali iymon-la

mudom yoniq,

Men kim bo'ldim,

gar uning qadrini angolmasam.

Xalqim, mehring ziyosi

ko'nglingga boshlab borsin,

Hazrat Navoiy yurgan

yo'lingga boshlab borsin.

Bosh ustiga sinovlar,

yo'lga dard tashlab borsin,

Mayli, bu ishq bog'-u rog',

cho'lingga boshlab borsin.

Oshiq yo shoirmasman,

shu darddan so'z termasam,

Sening o'g'loningmasman,

“Vatan!” deb jon bermasam.

Yashaganim ham yolg'on,

shoningga shon bermasam,

Ona, “o'g'lim” demagil,

kuningga yaramasam...

**UYG'ON**

Uyg'on, ey ona yurt, uyg'on, ey Turon,

Kimligingni aytsin bu ko'hna tuproq.

Uyg'onsin nomusing, ko'ksingdagi shon,

Va ishon,

Va ishon!

Haqlilar ichinda haqlisan ko'proq.

Sening bobong tog'ni titratgan botir,

Ayt, nega mudraysan, uyg'ongin, o'g'lon.

Sen ham ular kabi mardsan, bahodir,

Uyg'onsin nomusing, ko'ksingdagi shon.

Otlarning dupuri tushingni buzsin,

Oringni o'rtaga qo'yib jilov tut.

Bolangning bo'yi ham g'ururi o'ssin,

Mardlarni eslab qol, nomardni unut.

Yigitlar er bo'lib so'raydi elni,

Xilvatda yurmaydi qilib ko'zyoshi.

Agar sen nomusdan bog'lasang belni,

Qo'llab turar Shermuhammad qo'rboshi.

Murodga yetguncha izingga qaytma,

Bir o'zing ming chog'lik qo'shindek tizil.

El behikmat emas birligi uchun.

Jon bersang, shu Vatan nomini ayt va  
Yiqilma,  
Yiqilma!  
Tik turib uzil!

Men kini bo'ldim  
Ming yillarki, kutdim izingni,  
Sendan xat-xabar va sado bo'lindi.  
Armonga yo'ydim men bitta so'zingni,  
"Azizim, keldim" deb nido bo'lindi.

Kutdim.

Ming yillarki, kutdim izingni,

Sendan xat-xabar va sado bo'lindi.

Armonga yo'ydim men bitta so'zingni,  
"Azizim, keldim" deb nido bo'lindi.

Ketdim.

Boshim olib ketdim tog'larga,

Endi bu makonlar menga tor keldi.

Men quvnoq kuy chalgan o'sha bog'larga  
Ko'zлari jon so'rab jonon yor keldi.

Yetdim.

Qalbing kabi toshloq makonda

Ko'ksimni toshlarga berib uxladim.

Tangridan ijozat so'radim jonga,

Boshimga qabrtosh terib uxladim.

## - Vatani - - Qahramonlari - **KECHKI YO'QLAMA**

*(Urush davrida jangga kirgan askarlardan kim qaytdi, kim qaytmadi – kechki yo'qlamada ayon bo'ladi. Ism-familiyasi o'qilganda "MEN" deb javob bermagan o'g'lon nomi sharaf bilan yod etiladi...)*

*2000-yil Sariosiyoda kechgan janglarda millatning o'nlab Qahramonlari, Elomonlari, Bobur yigitlari mustaqillik himoyasi yo'lida jon taslim etgan.*

*Ular xizmat qilgan harbiy qismning "Kechki yo'qlama daftari"da ana shu o'g'lonlar nomi hanuz qayd etiladi.)*

Bu yurtning har qarich yeri muqaddas,  
Tillo tosh bosolmas tuproqlariga.  
Tog'larning qa'ridan keladi bir sas  
Jo'r bo'lib yurakning titroqlariga.

Shon desang, Vatanning shonini ko'tar,  
Jon desang, Vatanga uni tortiq et.  
Har kimga munosib bir qismat bitar,  
Uni sharaf bilan shunday yashab ket.

Sherga ov qismatdir sherligi uchun,  
El behikmat emas birligi uchun.

Yigitga Vatanni asramoq – taqdir!  
Qo'rg'onligi uchun, erligi uchun!

Qulqoqda qo'rg'oshin misol o'gitlar,  
Dilda qasam, taqdir – aziz boshida.  
"Tizzasi yo'q" mardlar, turkiy yigitlar,  
Tik turib uzildi Vatan qoshida.

Bag'ring alvon bo'ldi, ko'ksing-chi, oppoq,  
Nomining dildan o'chmas bir sha'n bo'libdi.  
Sharaf qoning bilan poklangan tuproq  
Bugun shunday ulug' Vatan bo'libdi.

Bu Vatan bitmagay to tuz bor ekan,  
Ishqi bilan dilni cho'g'lab o'tamiz.  
To Vatan bor ekan, to so'z bor ekan,  
Sizni butun umr yo'qlab o'tamiz:

- Katta leytenant Mahmudjon Jalilov!
- Vatan himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!
- Leytenant Boburjon G'aniyev!
- Vatan himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!
- Leytenant Sayyor Sa'dinov!
- Vatan himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!
- Katta serjant Elomon Otajonov!

- Vatan himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!
- Serjant Qahramonjon Madalimov!
- Vatan himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!..

## **YIG'LAMA, OSMON**

Nega bunday yig'laysan, osmon,  
 Senga tutar dastro'mol qayda?  
 Ko'zyoshlarинг yutib ketar Yer,  
 Oftob chiqsa, bug' ko'tarilib,  
 Qurib ketar bu eski jayda.

Nega bunday yig'laysan, osmon,  
 Kel, yaxshisi, ustimizdan kul.  
 Biz yig'laymiz sening o'rningga,  
 Qara, o'zi shundoq ham zamin  
 Bag'ri tilka, yonoqlari ho'l.

Endi bunday yig'lama, osmon,  
 Erimaymiz – diydamiz qotgan.  
 (Hayron qolar joyi yo'q buning)  
 Yig'lab-yig'lab charchagan dunyo,  
 Ko'zyoshining loyiga botgan.

Yig'lama, osmon...

## JUR'AT YO'Q

Men bilaman, baribir  
Sen demaysan boshqani.  
Menda esa jur'at yo'q  
Devoringdan oshgani.

Men yo'q bo'lib ketaman,  
Sen kutganing bir xat yo'q.  
Sezaman sog'inganing,  
Menda esa jur'at yo'q.

Rosti, diydor istar dil,  
Uchrashuvga fursat yo'q.  
Fursat-ku topiladi,  
Menda, jonim, jur'at yo'q.

Onam ko'nglim so'raydi,  
Aytmoqlikka jur'at yo'q.  
"Aqalli rasmin ko'rsat..."

Menda esa surat yo'q.

halok bo'lgan!  
- Katta serjant Elomon Otajonov!

## KO'NGLIM

Ko'nglim, qayerlarga boshlab ketyapsan,  
 Ortingda kimlarni tashlab ketyapsan?  
 O'zingni-da, meni shikasta etib,  
 Qara, ko'zlarimni yoshlab ketyapsan.

Deraza oldida o'tirib ma'yus,  
 Yomg'irga termulib surayapman o'y.  
 Salom senga, xazon, salom senga, kuz,  
 Sening ham ko'changda boshlandimi to'y.

Mening yuragimda har kuni bazm,  
 Xazonlar to'planib gulxan yoqadi.  
 Yodingni chorlashga qilolmam jazm,  
 Shu gulxan ko'nglimga guldek yoqadi.

Ming yilki, yashayman sen bilan birga,  
 Oh, ko'ngil, istaging nedir, bilmayman.  
 Men javob topdim so'ng yagona sirga,  
 O'zimning jonimni o'zim qiynayman.

## XAVOTIR

Tug'ildim, bu yorug' olamni ko'rdim,  
Boshimdan nur sochdi mehribon quyosh.  
Bu dunyo rad etdi, men esa o'ldim,  
Jallod kundasidan yumaladi bosh.

Duoga qo'l ochdim, demadim haqman,  
Qalb qo'rida seni asradim doim.  
Bir kuni jannatdek munavvar baxtdan  
O'zing rad qilmasang bo'ldi, Xudoyim!

## BULUT

Orzulari toptalgan bulut  
Yig'lab chiqdi tunning qa'rida  
Va tong chog'i bardoshi tugab,  
Samo kechdi uning bahridan.

Bu senmiding, aytgin, bulutjon,  
Bu menmidim, aytgin, bulutjon?..

## O'TINCH

Horib qaytayapman ishdan namozshom,  
 Horg'in o't oladi yashil avtobus.  
 Meni o'z bag'rige chorlagan oqshom  
 Zulmat xotirlarga qilar yuzma-yuz.

Ko'cha yoqasida nurli chiroqlar  
 Qorong'ulik ichra qator tizilgan.  
 Qora tun bag'rida ko'ringan oqlar  
 Mening yuragimga yetmay uzilgan.

Qalbim ziyo istar, qalbim sen istar,  
 Qulf osmagin ko'ngling darchalariga.  
 Xayolim qochadi, bilmam, ne qistar,  
 Avtobusning mitti dorchalariga...

Senga borlig'imni baxshida etgum,  
 O'tinchim: men uchun bir kun yashab ber.  
 Zulmat ko'chalardan ko'nglimga yetgum,  
 Menga yuragingdan fonus yasab ber.

## CHEKINISH

Ota, shovqin shahar jonimga tegdi,  
Tong otsin, qishloqqa qaytib ketaman.  
Qishloqqa yetguncha ovozim qo'yib,  
Eski qo'shilg'imni aytib ketaman.

Ota, chida demang, sabr qil demang,  
Axir vijdonimni yo'qotmaganman.  
Qatorda normanmi, yukingiz yerda...  
Sizga ketmonchalik asqotmaganman.

Barchasiga birdan qo'lni siltayman,  
Yerga o'tqazilar qo'ldagi qalam.  
Baland terak bo'lib unib chiqadi,  
Novdalari armon, barglari alam.

Ota, shovqin shahar jonimga tegdi,  
Ota, o'z boshimga o'zim yetaman.  
Yuragimga toshdan qafaslar qurgan  
Tosh shaharga xayr aytib ketaman.

Bu senmiding, aytgin, bulutjon,  
Bu menmidim, aytgin, bulutjon?..

**O'G'RI**

Ko'ch-d ko'rg'ib sahar,  
 O'g'ri bozor aro ketardi shoshib,  
 Ko'zin qorachig'i tinmay o'ynaydi.  
 Eski hunar, eski qilig'i toshib,  
 Uni dard qiynaydi, nafsi qiynaydi.

Uddaburon o'g'ri ko'rsatdi hunar,  
 Sezmay qoldi hatto ziyrak sotuvchi.  
 Bugun bozor, erta boshqasin tunar,  
 "San'at"idan mamnun bu olg'ir ovchi.

"Hech kim ko'rmadi", der, ish pishgan edi,  
 Mana, u shu o'yda shodon yuribdi.  
 O'g'ri birozgina yanglishgan edi,  
 Yaratgan barini ko'rib turibdi.



## TOSHKENT

Toshkent...

Hayratimni so'ndirgan shahar,  
Hamma narsa menga oddiy hodisa.  
Go'zal qiz, tishlaring emasdir gavhar,  
O'piching tuhfamas, shunchaki bo'sa.

Toshkent...

Hayratimni so'ndirgan shahar,  
Sehr bulog'imni tindirib olding.  
Tosh haqida qo'shiq aytib har safar,  
Meni o'z kuyingga ko'ndirib olding.

"Yashash - bu yashash-da" degan aqida  
Isbot topaverar har bir qadamda.  
Mudom o'playversa shular haqida  
Shiddat so'naverar ekan odamda.

Men mangu qo'shiqlar kuylamoqchiydim,  
Shiddat yo'q edi-yu, bor edi jur'at.  
Yakuni bor ertak so'ylamoqchiydim,  
O'zimdan ortolmay topmadim fursat.

Toshkent...

Hayratimni so'ndirgan shahar,  
Men qulq osmadim o'sha pandlarga.

Ko'ch-u ko'ronimni orqalab sahar,  
Qaytib ketolmayman Samarqandlarga.

Mehringni topmadim makonlar kezib,  
Mehribonim mening mehr bulog'im.  
Ko'zingni sog'indim ko'zlardan bezib,  
Ko'zlari to'rt bo'lgan ko'zi qarog'im.

Ichimda-ku hali yonayapti cho'g',  
Ona, seni o'ylab dilni yoshladim.  
Bag'rim hali toshga aylangani yo'q,  
Men bag'ritoshchlarni taniy boshladim!  
Toshkent...  
Hayratimni so'ndirgan shahar...

Men nelarga alishdim

olva

Mashhadogo nabilan ogo

olva

Ko'zligin toshga aylangani

olva

Odatda qizil qorloq o'g'li

olva

Mashhadogo nabilan ogo

olva

Chunki uning o'zi ham

Surat quchib yotadi.

## MUSOFIR QO'SHIG'I

Taqdir deb qaylarga ketdim, onajon,  
G'ussali naylarga ketdim, onajon.  
Qadrimni tuproqqa qorishtirdim-u,  
Endi qadringizga yetdim, onajon.

Oh, onam, bag'ringiz qonga to'l dirdim,  
Jon dedim, bo'g'zingiz jonga to'l dirdim.  
Qulog'ingizni shonga...  
Dahrni yolg'onga to'l dirdim, onajon.

Gul, dedim, bog'iga ayro sanaldim,  
Yo'l, dedim, musofir bo'lib yaraldim.  
Sizni g'amga berib...  
O'zimning ustimdan kulib yaraldim,  
onajon!  
Qushlarning holidan ogohsan, Mavlo,  
Ko'nglimning toridan ogohsan, Mavlo.  
Qishloq tomlariga qo'na olmagan  
Tushlarning holidan ogohsan, Mavlo.  
Onam ro'zg'oridan ogohsan, Mavlo.  
Manim ro'zg'orim so'z bo'ldi, onajon.

Toshkent...

Hayratimni so'ndirgan shahar,  
Men qulq osmadim o'sha pandlarga.

\* \* \*

Tun bag'rida yotgan qiz,  
Bag'rida tun yotgan qiz,  
Ko'zida quyosh botib,  
Ko'zida tong otgan qiz.

Xayollari ko'nglining  
Ko'chasidan ham uzun.  
Bu ko'chada begona  
Xayolga yo'qdir izn.

Men soyga yurak yordim:  
Armonim bo'lib qolding.  
Bag'rim ming pora payti  
Sen oyga yurak solding.

Men nelarga alishdim  
Nasibamni – xasmimni?  
Oymomoga ko'rsatma  
Qo'yningdagi rasmimni.  
  
Oymomo menga sirdosh,  
U siringni sotadi.  
Chunki uning o'zi ham  
Surat quchib yotadi.

## SENING YODING

To'rt kunlik umrni shamolga yo'ydim,  
Bunda bir aybim bor, ammo uzrli.  
Men asl hayotga ishonmay qo'ydim,  
Sening yoding bilan yashash huzurli.

Unda na hijron bor, na-da g'am-g'ussa,  
Meni sevgan oydin yoding barqaror.  
Bulutlar quyoshning jamolin to'ssa,  
Yodimda porlaysan takror va takror.

Men sendan hech narsa etmayman talab,  
Faqat shu: izningsiz yod etaversam.  
Sensiz lahzalarga bosganimcha lab,  
Yodingga ergashib jim ketaversam.

Sen esa haydama, parvo ham qilma,  
Men qayta yashayin o'sha onlarni.  
Tushungin, kezmoqlik yashashdan qiyin  
Seningsiz, yodingsiz zimistonlarni.

Tushlaruning holidan ogohsan, Maylo,  
Onam ro'zg'ribi degriqibnom, O'lo,  
Manini ro'zg'oribso'zlegi, Oajon.  
Chunuki nining o'si hissi  
Smalt dacpidoyso'i.

\* \* \*

Kuling deysan, kulmayman,  
 Qilasan xo'p jinnilik.  
 Men kulishni bilmayman,  
 Bu qandayin ko'r gulik.

Sizda bir gap bor, deysan,  
 Menda ko'p gap bor, gulim.  
 Sen quvonchga arziyan,  
 Zimiston mening dilim.

Sen dilimga bekinding,  
 Boshlab kelib bahorni.  
 So'ng dilimdan chekinding  
 Tutganimda oq qorni.

Zulm ko'r ding har onda,  
 Yoki ko'ngling to'qmidi?  
 Shundayin keng makonda  
 Mening pora ko'nglimdan,  
 Shu bechora ko'nglimdan  
 O'zga bir joy yo'qmidi?

Sizda bir gap bor, deysan,  
 Menda ko'p gap bor, gulim...

SENIN \* \* \*

To'rt Taqdir bo'ldi beshafqat,  
Bund Yo'limiz ayro-ayro.  
Men Menda qolmadi toqat  
Senin Ko'zyoshing daryo-daryo.

Unda Qismat nedir, sevgilim?  
Meni Qismat shumi, ayt, gulim.  
Bulut Men yo'limdan adashgum  
Yodir Senga eltmasa yo'lim.

Men Jim ko'nishni bilmayman,  
Paqat Ma'yus egib boshimni.  
Sensi Taqdir, to'sma, chetga o't  
Yodir Qalbdagi quyoshimni.

Sen Ko'k yuzida turnalar,  
Men Sendan keltirar vido.  
Tush Karaming keng bo'lsa gar,  
Senin Yorga yetkazgin, Xudo!

Yor qoshida surmalar  
"Kel-ey" deb aylar nido.  
Meni yorga yetkaz yo  
Dorga yetkazgin, Xudo!

\* \* \*

Qismat, dedim, dod, dedim,  
 Qo'llaringni tort, dedim.  
 G'amingni yelkamgamas,  
 Yuragimga ort dedim.

Yo'lim to'ldi toshlarga,  
 Ko'zim to'ldi lochlarga.  
 Yuragim, bu g'amlardan  
 Omonlik yo'q boshlarga.

Kuz ko'rdir, ko'rmayin yoz,  
 Yuz ko'rdir, ko'rmayin boz.  
 Dunyodan so'raganim  
 Mehr edi-ku, xolos.

Tangrim, shul holimga boq,  
 Yo'limda mingta tuzoq.  
 Sen tomon otlanganning  
 Manzili buncha uzoq.  
 Buncha uzoq...

## ESKI QAYG'ULAR

Yillar daryolarda oqib ketdilar,  
Oqib ketdi qancha shirin tuyg'ular.  
Yongan yuraklarni yoqib ketdilar,  
Hamon qalbimdasiz, eski qayg'ular.

Zamonjon, sekinlat shitoblariningni,  
Anglolmay qolyapman xitoblariningni.  
Topmadim tarjima kitoblariningni,  
Hamon qalbimdasiz, eski qayg'ular.

Na unutoldim men va na kecholdim,  
Bilmam, sizni qachon ko'nglimga soldim.  
Yodimdan chiqarmay yodimga oldim,  
Hamon qalbimdasiz, eski qayg'ular.

Siz mening tuzalmas jarohatimsiz,  
Ichimga o't yoqqan haroratimsiz.  
Shirin azobimsiz, tarovatimsiz,  
Hamon qalbimdasiz, eski qayg'ular.

Yor qoshida surmalar  
"Kel-ey" deb aylar nido.  
Meni yorga yetkaz yo  
Dorga yetkazgin, Xudo!

## ISHONCH

Sahro ham bog' bo'lar, desa, ishondim,  
Qaddimiz tog' bo'lar, desa, ishondim.  
Ko'nglimiz chog' bo'lar, desa, ishondim,  
Men so'zga ishonib yashadim shunday.

Suyganim siz, dedi yuzin yashirib,  
Ko'zlarin axtarsam, ko'zin yashirib.  
Yomonin yashirib, yaxshin toshirib,  
Men qizga ishonib yashadim shunday.

Orziqib kutardim, derdim: marhabo!  
Tanirdim, ishonch ber dilimga, sabo.  
Tirnoqsiz er-xotin – qo'shnik Qorbobo,  
Qorqizga ishonib yashadim shunday.

Bir kun eltajakman bor bisotimni,  
Hozirlab qo'yingiz yog'och otimni.  
O'zi bunyod etgan shu hayotimni  
Yolg'izga ishonib yashadim shunday.

## MEHMON BO'LIB KELDING

Mehmon bo'lib kelding yuragimga sen,  
Osmondek ko'nglimni bo'shatib berdim.  
O'zimda bor bo'lgan tuyg'ularimni  
Barini mehrga o'xshatib berdim.

Mehmon bo'lib kelding yuragimga sen,  
Nilufar gullardan poyandoz soldim.  
Sening ko'nglingga ham kirmoqlik uchun  
Bir sening ko'nglingdan andoza oldim.

Mehmon bo'lib kelding yuragimga sen,  
Ulfat etib bahor tarovatini.  
Endi men ishqingda o'tdek yonyapman,  
O'lchab ko'r ko'nglimning haroratini.

Ishq dedim, gullarga burkandi bog'im,  
Ishq dedim, chechaklar undi izimdan.  
Ishq dedim, jiddiyroq bo'ldi so'rog'im,  
O'zimni axtardim faqat o'zimdan.

Mehmon bo'lib kelding yuragimga sen,  
Tashrifing eng ulug' ehtirom bo'ldi.  
O'zingni mehmondek his qilma bunda,  
Axir, senga mezbon degan nom bo'ldi.

Mezbon bo'lib qolding yuragimda sen...

## MUNOJOT

Yaproqlardan jon olgan kuzda edi xayolim,  
 Olamni "Yaral"tirgan so'zda edi xayolim.  
 Hali bo'z bo'la turib, yuzda edi xayolim,  
 Ko'nglimni jismimdan tez qaritmagin, Xudoyim.

Men bilgan bu dunyolar oppoq edi, nur edi,  
 Ko'nglimdan joy olgan Ishq pok edi-yu, hur edi.  
 Dildagi har bir kalom bamisoli dur edi,  
 Bundan ortiq dunyoni tanitmagin, Xudoyim.

Samimiyat axtargan soxtalarga duch ekan,  
 Bilsang, do'stim, bu dunyo shundaylarga o'ch ekan.  
 Kengliklarni istasang, qanot chiqar, uch ekan,  
 Osmonimni ko'nglimdan tor etmagan, Xudoyim.

Baxt qidirib chiqibman taqdirimning sayliga,  
 Goho yengilganim rost zamonaning zayliga.  
 Agarki shu azoblar baxt deyilsa, mayliga,  
 Dardlarimni umrbod aritmagan, Xudoyim.

Chunki unda tanho o'zing bor eding.

## MEHMOMAYEVING AYRILISH

*"Bilsangiz, haydalish kuyini chalingiz,  
ajralish kuyini chalingiz".*

"O'tkan kunlar"dan.

Biz ketib boramiz ikki ulovda,

Avtobus oh tortar firog'imizdan.

Yuzda tabassum-u, yurak – olovda,

Kuyib borar yaqin-yirog'imizdan.

Nigohing muhrlab olib dilimga,

Olis Shosh tomonga surib ketdim ot.

Sezdim, ko'zlariningni tikib yo'limga

Ishqingningni yana bir aylading isbot.

Yo'llar uzun ekan, manzilim olis,

Sen haqda o'ylarim tongni uyg'otdi.

Qalbingda asragan siringni yolg'iz

Yolg'oni suymagan ko'zlarining sotdi.

Ming bor xayrashdik xayrashiguncha,

Yoningdan bir qadam jilgim kelmadni.

Endi hijron guli ochgaydir g'uncha,

Oddiy haqiqatni bilgim kelmadni.

*Mezbon bo'lib qolding yuragimda sen...*

\* \* \*

Qismat degan bilan shartlashaverdik,  
 U shartin qo'yadi, ko'naveramiz.  
 Nomardlarni ko'rib mardlashaverdik,  
 Payhon bo'lib qayta unaveramiz.

Ba'zan shashtimizdan qaytganimiz rost,  
 Ba'zan qo'l siltadik bari-bariga.  
 Borini boricha aytganimiz rost,  
 Ko'ngilning izmidan ketmay nariga.

Qirqiga chidadik, jo'raginam-a,  
 Endi chidaymiz-da qirq biriga ham.  
 Taqdirni tushundik, qilmadik ta'ma,  
 Chunki odil edi eng oliv hakam.

Ne kelsa shukr, deb Haqqa yo'ydik va  
 Dilga yo'latmadik ayro hislarni.  
 Sening makoningga eltib qo'ydik so'ng  
 O'zing in'om etgan anbar islarni.

Garchi asrolmadik qancha durlarni,  
 O'shanda ham O'zing madadkor eding.  
 Biz faqat ko'ngilni asradik, Tangrim,  
 Chunki unda tanho o'zing bor eding.

## BOLALIK

Bolalik – ortiga qaytmas turnalar,  
Qo'l silkib ketadi qator va qator.

Har safar yodimda ming xil turlanar,  
Har safar o'ylasam, o'ylarim bedor.

Mehr nurlarini sochib sahardan  
Muruvvat atalmish gulbog'da o'sdim.  
Bugun-chi, diydasi qotgan shahardan  
Muhabbat axtarib yuribman, do'stim.

Bolalik – ortiga qaytmas turnalar,  
Qo'l silkib ketadi qator va qator.  
Har safar yodimda ming xil turlanar,  
Har safar o'ylasam, o'ylarim bedor.

O'zim yo'ldaman-u, ko'zlarim ko'kda,  
Kelar kuningizni ayting, turnalar.  
Yerda yurgnlardan ulfatim yo'q-da,  
Mening osmonimga qayting, turnalar.

Ming bor xayrashdik xayrashguncha,  
Yon qurashdik xayrashguncha,  
Engilba jostish uyligim qaytishguncha,  
Bis fadalg'oz uyligim qaytishguncha.

## SINOV SHARTNOMASI

*(Gulshoda opaga)*

Shartnoma berishar ishga kirar payt,  
 "Bir oy sinovdasiz" deyishar doim.  
 Shartnoma shartini bir umr deb ayt,  
 Umrimni sinovga bergen Xudoyim.

Ishimni olasan shartnomaga xos,  
 Men yuzingni yerga qaratganimda.  
 O, hali nojo'ya amallar uchun  
 Javob bermog'im bor Yaratganimga.

## OG'IR SAVOL

Yelkamda qushning izi, tilimda nishning izi,  
 Ko'nglimda Haqning so'zi, tilimda shayton so'zi.  
 Suvratda kimning yuzi, siyratda kimning yuzi?  
 Kimman o'zi?

Kaloming nedir, do'stim, saloming nedir, do'stim,  
 Kamoling nedir, do'stim, zavolting nedir, do'stim.  
 Ich dunyong o'zga dunyo, jamolting nedir do'stim,  
 Kimsan o'zi?

## SINGLIM ANNAGA

"Farzandi bor har ayol ham ona emas,  
Farzandi bor har erkak ham ota emas".

*Chirchiq shahridagi mehribonlik uyi tarbiya-chisi, 110 nafar farzandning validasi Farida opaning degani*

Yuzingda nimtabassum,  
Ichingda bir hasrat bor.  
Yostig'ingning ostida  
Javob kelmas ko'p xat bor.  
Dilingdagi umiding  
Qanoti yo'q qushmidi?  
Ay, bolajon, bu qismat  
Qo'rqinchli bir tushmidi?  
Tik boqolmay yuzingga  
Hasratlarim ortadir.  
Ado bo'lgan yuragim  
Shundanmi "oh" tortadir.  
Chizolsaydim eshikka  
Termulgan ko'zlariningni.  
Onang bir ko'rsa edi,  
Otang bir ko'rsa edi  
Oydayin yuzlaringni,  
Kundayin yuzlaringni...  
Munchoq ko'zlariningni yum,  
Yetar, singlim, buguncha.

Anglaganing shu bo'ldi –  
Sog'inch degan tushuncha,  
Sog'inch degan tushuncha.

Qismat deganlari shu,  
Mitti jonning qiynama.  
Bag'rim ezilib ketdi,  
"Oyi-oyi" o'ynama....

Kirisk, qaynaydi  
Dardining qiziqishini  
Yetsam, orangni nam  
Milxunga ayt: kutsin men borgunimcha,  
Axir men sezyapman Yerning isini,  
Umiding so'nmasin, kuchli bo'l, oshna,  
Qismat deganlari shu,  
Mitti jonning qiynama.  
Bag'rim ezilib ketdi,  
"Oyi-oyi" o'ynama....



Safarni shu yerda tugatamizmi?  
O'zingni saqlagin telbaliklardan.

## VAZNSIZLIKDAGI HAYOT

Har kuni shu holat bo'ladi takror,  
Bekatlar kutadi ishdan qaytishing.  
Avtobus kelishi va yana sening  
Chiptachi yigitga salom aytishing.

Qulayroq o'rindiq taklif etishar  
Qanday horiganining sezgan odamlar.  
Va yana xayolga cho'mib ketishar  
So'zdan va ko'zlardan bezgan odamlar.

Avtobus jo'r bo'lar xo'rsinishingga,  
Adoqsiz o'ylarda ketib borasan.  
O'zingdek zerikkan katta xonangga  
Xuddi shu zaylda yetib borasan.

Ming yilki, shundayin o'zgarmas dunyo,  
Qanisan, oq tulpor mingan bahodir?  
Bugun ham kulmadi oppoq orzular,  
Bugun ham hech narsa bo'lindi sodir.

Onang bir ko'rsa edi,  
Otang bir ko'rsa edi  
Oydayin yuzlaringni,  
Kundai yuzlaringni...  
Munchoq ko'zlaringni yum,  
Yetar, singlim, buguncha.

\* \* \*

(Ch. Aytmatovning "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasini o'qib)

Chayqalib boryapman to'lqinlar aro,  
 Dengizda oq bulut – manzil yo'qolgan.  
 Mening ham qayig'im bir motamsaro,  
 Mening ham osmonim yulduzsiz qolgan.

Unutib qo'ydim men tashnaligimni,  
 Sening izlaringdan suzib boraman.  
 Kirisk, qabul et oshnaligimni,  
 Dardingni ich-ichdan sezib boraman.

Mana men boryapman, chidagin picha,  
 Yetsam, otangni ham saqlab qolamiz.  
 Milxunga ayt: kutsin men borgunimcha,  
 Ovchilik nomini oqlab qolamiz.

Oqsoqol O'rxonning tamakisini  
 Chaqmoqning o'tida tutatamizmi?  
 Axir men sezyapman Yerning isini,  
 Safarni shu yerda tugatamizmi?

Umiding so'nmasin, kuchli bo'l, oshna,  
 O'zingni saqlagin telbaliklardan.

Bizni kutayapti buloqlar – tashna,  
O'mbaloq oshamiz tepaliklardan.

Oving yurishmadi, ovulingga qayt,  
Ochiq yaralaring endi kim yopar?  
Biz keldik, eng mungli qo'shig'ingni ayt,  
Sohilda intizor turgan olapar.

Va yana xayolga cho'mib ketishar.

So'zdan

O'zingadek zerkkan katta qutu  
Yerda qutu qutu qutu qutu.  
Ming Ming Ming Ming Ming Ming  
Qanisan, qo'tutpor mingan bahodir?  
Bugun ham kulmadidi orzular,  
Bugun ham hech qo'sha bo'lmagan.  
Chasdoridin uye o'qida turishuvchi  
Axit men sessabsiz Yerdingizini  
Saqisimi shu yetda tindastimiz.

## O'YIN

Ha, men o'yinchiman,  
ishonavering,

Hayot deb bilganim o'yin bo'ldi-ku.

Barisi o'shandan keyin boshlandi,

Bilib turib yashash qiyin bo'ldi-ku.

Sen raqsga tortasan qo'limdan ushlab,

– Yuring, bir o'ynaymiz, – deysan muloyim.

– Men nima qilyapman?!

E'tirozim shu.

Yolg'on bo'lsa, aytgin o'zing, Xudoyim.

So'ng sekin davraga kirib borasan,

Chapaklar chalasan, raqsga tushasan.

Maqoming baribir o'yinchi bo'lar,

Baribir O'yinda o'sha-o'shasan.

Bir marta o'zingni ko'rsang bormidi,

To'qnash kelib qolsa ko'zingga ko'zing.

Yaxshiyam, bundayin bo'lmaydi, yo'qsa,

Achinib ketarding o'zingga o'zing.

Ey, o'yinchi do'stim, ey, dardkash do'stim,

Bu shunday tomosha, o'yin bo'ladi.

Maydonga kelganining bayrammas asli,

Uni tugatgan kun to'ying bo'ladi.

\* \* \*

Neki nasib etsa, barisi bo'ldi,  
 Demak, yozilmagan bundan ortig'i.  
 Qay kuni to'kildim, paymonam to'lди,  
 Bo'g'zimni kuydirdi bir og'riq, yig'i.

Men jonim qiynadim jondan o'tkazib,  
 Eng og'ir qiyonoqqa shaylanib bordim.  
 Ko'nglimga chizilgan xarita bilan  
 Olovli yo'llardan aylanib bordim.

Javobsiz qoldirdim qancha savolni,  
 Ishqimning o'tida ayovsiz kuydim.  
 Menden hech ranjima, ranjima, dunyo,  
 Men faqat hazrati Insonni suydim.

Bilaman, eng og'ir so'roq kutmoqda,  
 Olisdan ko'rindi Puli Sirotin.  
 Gunohkor bandangman, deya ovundim,  
 Aybsiz Parvardigor – shu sening oting.

Qismatim ming yillar avval bitilgan,  
 O'zingcha nimadir to'qima, ochun.  
 Bir marta aylanib chiqdim dunyoni,  
 Menga asotirlar o'qima, ochun.

Ana, botib boti \* \* \*

Tunga vod dusin qayn quyosh  
 Jayron, ko'zlaringga uzoq termuldim,  
 Bunda men o'zimni izlayotgandim.  
 Zeriktirib qo'ydim sokinligimdan,  
 Men shunday so'zlarsiz so'zlayotgandim.

Ishq – taqdir.

Bilardim ming yillar avval,  
 Barini oldindan sezayotgandim.  
 Gulim, taqdirimga yozilganmiding?  
 Bilmay turib seni sevayotgandim.

Hijron ko'kka tutash dengiz, dedilar,  
 Shu dengizni kechib o'tayotgandim.  
 Olisdan bo'lqa-da qirg'oq ko'rinsa,  
 Demak, senga qarab ketayotgandim.

... Keyin ne bo'lganin bila olmadim,  
 Dunyoni teskari ko'rayotgandim.  
 Oyog'imni ko'kda hilpiratgancha  
 Boshim bilan shunday yurayotgandim.

Bir ma'no topayin, degan ilinjda  
 Dunyoni Mashrabdek kezayotgandim.  
 To'lqindek mavjlangan sunbul sochingni  
 Qop-qora olovga mengzayotgandim  
 Va o'sha olovda isinyotgandim...

## HIJRON

Ko'zlarim yo'lingda, tigramda quyosh,  
Eng so'nggi nurlari lov-lov yonardi.  
Ko'nglimning tubiga tomardi ko'zyosh,  
Shafaq va ichimda olov yonardi.

Sen esa kelmaysan, balki, bilmaysan,  
Yo'llar aytsin senga bedorligimni.  
Sen maysan, jonimga qasd qilgan maysan,  
Bilmaysan-da shunday bemorligimni.

Bo'ldi, yetar endi bugundan boshlab  
Yo'lingga chiqmayman, kutmayman, biroq  
Ichimda nimadir "chirt" etib ketar,  
Bandidan uzilgan yaproqdek titroq.

Ha, titroqdan tanam zirqirayotir,  
Ichimdagi torlar uzildi bir-bir.  
Umrim sham misoli pirpirayotir,  
Hijrondan yaralgan edingmi, taqdir?

...O, shafaq, men uzoq termulgan tilsim,  
Zulmat va ziyoning jangi edi u.  
Shafaqdek qizargan ko'ksim-a, ko'ksim,  
Qon bo'lgan dilimning rangi edi u.

Ana, botib borar bardoshi yetmay  
 Tunga yog'dusini yutqazgan quyosh.  
 Dunyo ko'nglim kabi qorayib qolar,  
 Yaratgan, tonggacha o'zing ber bardosh.

### **SUG'URTACHI QIZ**

Sug'urtachi qiz, omonmisan, ayt?  
 Sening xizmatingga muhtoj turibman.  
 Yo'qotib qo'yayin, deya ko'nglimni,  
 Xavotir ichida qo'rqiб yuribman.

Sug'urtachi qiz, ko'zlarimga boq,  
 So'ng angla quvonch-u qayg'ularimni.  
 Zavol neligini bilmisin toki,  
 Sug'urtalab qo'ygin tuyg'ularimni.

\* \* \*

Tangrim kechiktirsa – go'zallashtirar,  
Qismat sinovlarni xush ko'rayotir.  
Hali tong otadi, o'kinma, gulim,  
Dunyo tunday qora tush ko'rayotir.

Ko'nglingdan uzilgan yaproqlar haqqi,  
Dunyoni chechakka o'raymiz hali.  
Quvonch ham yiqitar, deganlari chin,  
Kuchli tut o'zingni o'sha mahali.

Oyga yetib bo'lmas poy-u piyoda,  
Qara, u kaftimda kulib turibdi.  
Qaro tun bag'rida shod erur, garchi  
Zulmat chekinishin bilib turibdi.

Shunda ham baxtiyor, shunda ham masrur,  
Zulmatni yoritgan nurman, deyapti.  
Balki, qaro tunga egizman, ammo  
Baribir samoda hurman, deyapti.

Quloq tut, azizam, yulduzlar bizga  
Shivirlab-shivirlab sir aytayapti.  
Sabrga chiroyli mukofot bo'lib,  
Qara, ko'nglimizga nur qaytayapti.

## BOSHQA QO'SHIQ

Ko'nglimning tub-tubida  
G'ashlik qalqib turibdi.  
Bugun u quyoshdayin  
Yonib, balqib turibdi.

Qarolmayman, qarasam,  
Otashda yonayapman.  
Bag'riqon qalbim bilan  
Qo'shilib qonayapman.

Kutganim o'zing eding,  
So'raganim ishq bo'ldi.  
Bugun o'sha muhabbat  
Armonli qo'shiq bo'ldi.

Bu qo'shiq boshqa bo'ldi,  
Boshqa bunday qo'shiq yo'q.  
Bunda hijron, armon bor,  
Oshiq bor-u, ma'shuq yo'q.

U ishqim ketgan tomon.

\* \* \*

Shanba. Metro. Biz uchrashar kun,  
Bir yilga cho'zilib ketar bir hafta.  
Quyosh qoraymaydi, oqarmaydi tun,  
Fursat imillaydi sen yo'q tarafda.

Shanba. Metro. Yana uchrashdik,  
Ogohlik so'raldi har birimizdan.  
Toshqin qalbimizga qo'shilib toshdik,  
Ko'z uzmay ketardik bir-birimizdan.

Tutqichga uzatgan qo'ling yetmasdi,  
"Meni quch, meni quch" derdi ko'zlarining.  
Menda esa faqat jur'at yetmasdi,  
Quchmoqqa ijozat berdi ko'zlarining.

Ilk bora bag'rimga oldim o'sha on, masrur,  
Olov nima edi sening qarshingda.  
Quyoshning qizidek eding nurafshon,  
Menga joy bormidi ko'ngil arshingda?

... Shanba. Metro. Biz uchrashmadik,  
Qaytib ko'rolmadim oydin yuzingni.  
So'ng chinga aylandi dildagi hadik,  
Tunlari axtardim oydan yuzingni.

Sensiz keng shaharda yurish ham malol,  
 Sensiz bu vagonlar qandayin sovuq.  
 Hijron, bag'ringni och, meni qarshi ol,  
 Sadog'ing bo'sh bo'lsa, ko'ksim to'la o'q.

Shu kech dunyoyimni qorlar bosdi-da,  
 Qor urdim yuzimga qadring bilinib.  
 Jonginam, hali ham yerning ostida  
 Poyezd yurgan emish bag'ri tilinib.

## BIR TOMON

To'rt tononi bor dunyo,

Menda esa bir tomon.

Tikilib charchamayman,

Yuribman omon-omon.

U ko'ksimni shafaqdek

Qontalash etgan tomon,

U quyosh botgan tomon,

U ishqim ketgan tomon.

Qara, jonio, osmonga qara,

Bulut emas, buyruq yog'yapti.

Sensizlikning iztiroblari

Yomg'ir bo'lib dilga oqyapti.

## BO'YOQCHI

Senga yetamanmi shu yo'lim bilan?  
Muhtojni tunagan qaroqchi bo'ldim.  
Qop-qora ko'nglimni o'z qo'lim bilan  
Bir umr bo'yagan bo'yoqchi bo'ldim.

Yetti xil rang bo'lar kamalakda ham,  
Mening bisotimda faqat bitta rang.  
Hikmat bor bir kunlik kapalakda ham,  
Menda-chi?

Shu savol qilaverar tang.

Sen-da atrofingga shundoq qarasang,  
Oppoq tonglarimni qoraytib qo'ydim.  
Musavvir do'stimga so'nggi ishim, deb  
Bo'yashga bir baland dor aytib qo'ydim.

Ilk bora bag'ringa oldin o'sha on,  
Olov nima debotishga qaratilganda  
Quryoshning qaytib qoraytib qo'ydim.  
Menga joyburuniga qoldig'lig'ga quritigda?

... Shanba, Metro, Biz uchrashmadik,  
Qaytib ko'rolmadim oydin yuzingni.  
So'ng chinga aylandi dildagi hadik,  
Tunlari axtardim oydan yuzingni.

**UNUT DEYSAN**

Unut deysan, unutolmayman,  
 Ishq yomg'irmi, singib ketsa u.  
 So'ng ruhimning o'q ildiziga  
 Obihayot bo'lib yetsa u.

O'shanda ham unut deysanmi,  
 Ayt, ruhimdan qanday kechaman.  
 Sen yodimdan o'chganing mahal  
 Men dunyodan butkul o'chaman.

Ko'nglim qoldi sag'irdek bo'zlab,  
 Kechir, deding, kechirolmadim.  
 Suratlaring yoqib isindim,  
 Nigohimdan o'chirolmadim.

Senga sira kelmasin malol  
 O'tanishim, sog'inishlarim.  
 Dunyoyingni sovutib qo'ymas  
 Qorsiz o'tgan uzun qishlarim.

Qara, jonim, osmonga qara,  
 Bulut emas, buyruq yog'yapti.  
 Sensizlikning iztiroblari  
 Yomg'ir bo'lib dilga oqyapti.

Ishqni bayroq qilgancha, jonio,  
Ketayapman dovonlar osha.  
Toki seni unutolmayin,  
Meni shunday azoblab yasha.

## MO'JIZANING SO'NGGI NAFASI

Ko'nglim kabi qabargan ochun,  
Ko'nglim kabi qaqragan tuproq,  
Ko'ksing yorib nish urdi chechak,  
Quvonchidan qayg'usi ko'proq.  
  
Tushlariga zilol suv kirar,  
Jimirlaydi tomirlarida.  
Gulim, bugun yayragin endi  
Ko'zyoshimning yomg'irlarida.

Jamolingdan sevindi kimlar,  
Qalbime ezdi qayg'uning sasi.  
Tushun, meni qiynaydi ko'proq  
Mo'jizaning so'nggi nafasi.

Barini sezib turib,  
ichingiz qo'shish uchun.

## **BOBOMNING NIGOHI**

(Normamat bobomning porloq xotirasiga)

Bobo, tushlarimga kirasisiz takror,  
Nigohingiz savol – tig'day dil teshar.  
Shundoq ham ko'ksimning yamoqlari bor,  
Shundoq ham yamoqqa to'la-ku bashar.

Bobo, nigohingiz o'tga tutashdir,  
Bunga dosh bermoqqa topilmas imkon.  
Farzandlar... ko'rdingiz ko'rgani tashdir,  
Ko'ngilga yetmasdan sovib qolgan qon.

Siz qurgan uylarni buzdik tunov kun,  
Ichim ich-ichidan bo'linib ketdi.  
Qulog'im ostida ingradi bir un,  
Momom ko'zlarimga ko'rinish ketdi.

Ay, momom, yuzidan oftob nur olgan,  
Bir umr eshikka termulgan dilgir.  
Ko'klamdek bir kelib, keyin yo'qolgan  
Kenjas qoshida aylangan gir-gir.

Bobo, tushlarimga kirasisiz takror,  
Nigohingiz savol – tig'day dil teshar.  
Men o'ylab olguncha hech yo'qsa bir bor  
Aylanmay tursa-chi bu yumaloq shar.

## ORZU

Ketayapinan dovoniar osna.

Xanjarning sopi kabi  
but bo'lsang, butun bo'lsang,  
Nurday oppoq kun bo'lsang,  
zulmatdayin tun bo'lsang.  
Avval yonsang, keyin cho'g'  
va oxir tutun bo'lsang,  
Bo'lganicha boringni  
bo'ldirib yashayversang,  
Yo boringni boricha  
to'ldirib yashayversang.

Tushingda takror-takror  
o'zingni bo'g'izlasang,  
Kekirdaging sug'urib,  
so'zingni bo'g'izlasang.  
Jur'atingdan shodlanib,  
chin so'zingni izlasang,  
Yolg'on umringni shartta  
o'ldirib yashayversang,  
Yo boringni boricha  
to'ldirib yashayversang.

Yashinga qasd qilsang-u,  
o'zingdan o'zib ketsang,  
O'zolmasang, ko'kdagi  
bulutday to'zib ketsang,

Barini sezib turib,  
 chidolmay qo'zib ketsang,  
 Ichingdagi yig'ini  
 kuldirib yashayversang,  
 Yo boringni boricha  
 to'ldirib yashayversang.

Hech narsadan cho'chimay  
 aksingga qaray olsang,  
 "Ishlar qalay?" deb undan  
 bemalol so'ray olsang.

Shu orzuni dilingga  
 tugishga yaray olsang,  
 Yo boringni boricha  
 to'ldirib yashayversang,  
 Yolg'on umringni shartta  
 o'ldirib yashayversang.

Shunda orzu lazzatin  
 totganingni sezasan,  
 Shu tuproqqa chuqurroq  
 botganingni sezasan.  
 Yolg'onchini tekinga  
 sotganingni sezasan,  
 O'z-o'zingni shundayin  
 to'ldirib yasha endi,  
 Yig'latib ketaring bor,  
 kuldirib yasha endi.

## SENI IZLAYMAN

Garchi navosidan ayrilgan qushman,  
Sensiz bog'larimda sassiz bo'zlayman.  
Ishqing sharobidan mudom sarxushman,  
Seni izlayman.

Bilaman, sen ham shu shaharda dalli  
Devona yuribsan mastona bo'lib.  
Kutaman xabaring kelgan mahali  
Ko'nglim bilan birga ostona bo'lib.

Netay, xabaring bor, xushxabaring yo'q,  
Ishqsiz davralarda ishqdan so'zlayman.  
Vujudimda olov, ko'zlarimda cho'g',  
Seni izlayman.

Bo'limgan hech qachon ishq taqdiri hal,  
Avji saratonda, axir, muzlayman.  
Dunyo kaftimchalik toraygan mahal,  
Seni izlayman.

O'shanda bor bo'lgin, yo'llarimga chiq,  
Sog'indingmi, degin, sog'indim, degin.  
Ketganing – shu ko'nglim ko'zimdek ochiq,  
Sensiz yashashga ham og'rindim, degin.

Unutdingmi, dema, dema hech bir so'z,  
 Ko'zlarimga tikil, neni so'zlay man?  
 Kelaring chin bo'lqa, qo'llaringni cho'z,  
 Dunyo dunyo bo'lgan kunidan beri  
 Seni izlayman,  
 Seni izlayman.

Meniheqida qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Bo'lib qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Mabidoti qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Baxtimi qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Baribir qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Burunu qiziq qiziq qiziq qiziq

Senoqiziq qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Bo'lib qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Ispidiwa qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Bo'lib qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Naqadarib qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Baxtimni yelkalab yuribman bazo'.  
 Bo'lib qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Sengirtulsa qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Dolaydilish qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Azolmiched qiziq qiziq qiziq qiziq  
 Senoqiziq qiziq qiziq qiziq qiziq

## MENING BAHORIM

Mensiz hayotingga bahorlar keldi,  
Baxtingdan suyundim, suyundim, yorim.  
Sensiz hayotimga, oh, zorlar keldi,  
Sen qaylarda eding, mening bahorim?

Sog'indim, shu bugun iqrorman butkul,  
Sendan olislarda yuribman bedor.  
O't ketgan dunyomni qoplab oldi kul,  
Menda faqat sening shirin yoding bor.

Borlig'im sen eding, borim ishq edi,  
Men qashshoq emasdym sevgi bobida.  
O'shanda dunyo ham chin oshiq edi,  
Bugun u kuydirar hijron tobida.

Bugun ko'zlariningdek ko'zlarim qaro,  
Ishqimga bir guvoh – ko'zlarim qoldi.  
Toshkentning eng sokin bog'lari aro  
Seni izlab yurgan izlarim qoldi.

Bor bo'lsang, mayliga, so'nggi bora kel,  
Shudringga belansin salqin nahorim.  
Ko'ksimni to'ldirgan nasim bo'lib yel,  
Sen o'zi bormisan, mening bahorim,  
Sen o'zi bormiding, mening bahorim?

## AXIR, SEN BORSAN

Shu ro'yi zaminda borliging yetar,  
 Haqsizman "Baxtsizman" deyishga hatto.  
 Bag'rimdan ming laxta qon sizib ketar,  
 Shafaqning rangi qon bo'lgunicha to.

Ko'ksimda bir azob nish otayotir,  
 Botib borayapti joni jonimga.  
 Huv anov tomonda kun botayotir,  
 Meni eltib qo'ying zimistonimga.

Men horg'in tikildim bulutlarga jim,  
 Ming yil intiq bo'ldim: yog'magan qorsan.  
 Baxtimsan, qayg'umsan, ishqim, sevinchim,  
 Baribir borsan-ku, baribir, borsan.

Sening borligingga ming bor tashakkur,  
 Bormanmi?  
 Bor bo'lsm, ming bora uzr.  
 Naqadar baxtliman, dunyo, ko'rib qo'y!  
 Baxtimni yelkalab yuribman bazo'r.

Senga ta'rif topdim, ey devona ishq,  
 Dorboz o'ynayotgan qildayin dorsan.  
 Azobim bitmagay, tugamas qo'shiq,  
 Axir, sen borsan-ku, axir, sen borsan.

## BRUNO

(“Yo'l-yo'l pijamali bola” filmini ko'rib)

Bruno, qiziqma hech qanday sirga,  
Koptogingni o'yna, arg'imchoqda uch.  
Yoki bekinmachoq o'ynaymiz birga,  
Ko'zlarimni yumdim, bir, ikki, uch...

Eng sokin, eng xilvat joylarga berkin,  
Seni topolmasin iskabtoparlar.  
Eshitma va ko'rma, bu hayot chirkin,  
Anglasang, otarlar yoki choparlar.

Sen shunday yashagin, shunday beg'ubor,  
Umriningni sarf etma asov quyunday.  
Bo'g'ilma, ko'ksingga inmasin g'ubor,  
Shunchaki, bu yerning havosi shunday.

Bruno, qaragin, osmon tip-tiniq,  
Uchib borayotir ozodlik, hurlik.  
Faqat anov qushning qanoti siniq,  
Janubga yetolmay qulaydi sho'rlik.

Bruno, qoqilma zulmat tunlari  
Ko'cha chiroqlarin yoqib qo'yaman.  
Hushingni olmasin mazlum unlari,  
Egningga ko'zmunchoq taqib qo'yaman.

Endi esa uxla, ko'zlarigni yum,  
 Men ertak aytaman bor mehrim iyib.  
 So'ngra tushlaringda yig'layman yum-yum,  
 Raqamlangan yo'l-yo'l pijama kiyib.

### **ONA TILIM**

Tuyg'uning shaklini kim ko'ribdi, ayt,  
 Mehrning taftini o'lchaganmisan?  
 Ichingdan bir qo'shiq kelavergan payt  
 Ruhing bilan unga kuy chalganmisan?

Ortidan mastona bo'lib borsam-u  
 Eng toza tuyg'ular aylasa ogoh.  
 Qadrdon bekatda tushib qolsam-u,  
 Kulib qarshi olsa avtoturargoh.

Issiq kulcha yuzli issiq chehralar  
 Jonimga cho'g'dayin o't tutashtirsa.  
 Musicha singillar, oq gulchehralar  
 Nurdyayin go'shada bir uchrashtirsa.

Sog'inch bo'lib kirsam va yo kuy bo'lib,  
 Mudom shunday uyg'oq ruh kabi kelsam.  
 Poyingga bosh ursam va ko'ksim to'lib,  
 O'z ona tilimda onajon desam!

\* \* \*

(Qoraqalpoq ukam Ajiniyazga)

Bu quyosh nur sochar ikkimizga teng,  
Men sovuq qotaman, ko'ngil qo'rim tor.  
Sening qalbing Orol sahrosidek keng  
Va unda yana bir o'z quyoshing bor.

Dunyoni taniging keladi mudom,  
Balandroq uchishni qilasan havas.  
Tanima, u axir chiqib bo'lmas kom,  
Baland davralarda yetishmas nafas.

Uch kunda sog'inib bo'lsan ado,  
Qumdan bunyod bo'lgan qoyalaringni.  
Qo'msaysan izlab nur topguningcha to  
Nukusdagi uzun soyalaringni<sup>1</sup>.

Noshud deb ayblagin, roziman, mayli,  
Bir chini shu yer-u, shu cheksiz fazo.  
Qolgani uydirma, o'tirik sayli,  
Ertakchi momo ham qilgandir qazo.

<sup>1</sup> Nukusda boshqa joylarga nisbatan soya ancha uzun bo'ladi.

Sinov shartnomasi

G'arib savol

## OZODLIK KUYI

Maydonda sinalgay, kim nega qodir,  
Birov mag'lub bo'lar, birov muzaffar.  
Ammo tarix ko'rgan o'sha bahodir  
Zafar quchaverar edi har safar.

Toleyi kulgan shoh, baxtli sarkarda  
Shodumon elining yo'lboshi edi.  
Bir kun tobi qochdi olis safarda,  
Yurtda Navro'z edi, yilboshi edi.

Uni keltirdilar billur qasrga,  
Tabiblar, habiblar...  
hamma parvona.

Davo topish uchun xastalik – sirga  
To'rtala tomonga bo'ldi ravona.

Qurbanlik qilishdi tuya, qo'y bilan,  
Agar joiz bo'lsa, o'lgan tirildi.  
Shoh biroz tin olsin, degan o'y bilan  
Saroya mashshoqlar chaqirtirildi.

Shoh yotar bir miskin, g'arib ahvolda,  
Nigohida nedir zohir derdilar.  
Mashshoqlar o'zlari sezmagan holda  
Ozodlik kuyini chalib berdilar...

**MUNDARIJA**

<b>Shodmonqul Salom.</b> Yozayotganiga ishongan ijodkor.....	3
Vatan .....	5
Uyg'on.....	7
"Kutdim.." .....	8
Kechki yo'qlama.....	9
Yig'lama, osmon.....	11
Jur'at yo'q.....	12
Ko'nglim.....	13
Xavotir.....	14
Bulut.....	14
O'tinch.....	15
Chekinish.....	16
O'g'ri.....	17
Toshkent.....	18
Musofir qo'shig'i.....	20
"Tun bag'rida yotgan qiz..." .....	21
Sening yoding.....	22
"Kuling deysan, kulmayman..." .....	23
"Taqdir bo'ldi beshafqat..." .....	24
"Qismat dedim, dod dedim..." .....	25
Eski qayg'ular.....	26
Ishonch.....	27
Mehmon bo'lib kelding.....	28
Munojot.....	29
Ayrilish.....	30
"Qismat degan bilan shartlashaverdik..." .....	31
Bolalik.....	32

Sinov shartnomasi .....	33
Og'ir savol.....	33
Singlim Annaga.....	34
Vaznsizlikdagi hayot.....	36
"Chayqalib boryapman to'lqinlar aro..." .....	37
O'yin.....	39
"Neki nasib etsa, barisi bo'ldi..." .....	40
"Jayron, ko'zlaringga uzoq termuldim..." .....	41
Hijron.....	42
Sug'urtachi qiz.....	43
"Tangrim kechiktirsa - go'zallashtirar..." .....	44
Boshqa qo'shiq.....	45
"Shanba. Metro. Biz uchrashar edik..." .....	46
Bir tomon.....	47
Bo'yoqchi.....	48
Unut deysan.....	49
Mo'jizaning so'nggi nafasi.....	50
Bobomning nigohi.....	51
Orzu.....	52
Seni izlayman.....	54
Mening bahorim.....	56
Axir, sen borsan.....	57
Bruno.....	58
Ona tilim.....	59
"Bu quyosh nur sochar ikkimizga teng..." .....	60
Ozodlik kuyi.....	61

**УО'К:** 821.512.133-1(081)

**КБК:** 83.3(50'zb)

**Q 97**

**Q 97 Qo'chqorov, Islom.**

Seni izlayman [matn]: *she'rlar* / I. Qo'chqorov.

- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 64 b.

*Adabiy-badiiy nashr*

**ISLOMJON QO'CHQOROV**

## **SENI IZLAYMAN**

*She'rlar*

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

📞 (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:


Offset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90  $\frac{1}{32}$ .

Offset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,0.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №367.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



2175 e



ISLOMJON QO'CHQOROV

SENI IZLAYMAN

Islomjon Qo'chqorov  
1993-yil 15-yanvarda Samarqand  
viloyati Ishtixon tumanining Bahrin  
qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston  
davlat jahon tillari universitetining  
xalqaro jurnalistika fakultetida tahsil  
olgan. 2018-yilda Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin seminari  
ishtirokchisi. Hozirda "Vatanparvar"  
gazetasida faoliyat yuritmoqda.

**"ADABIYOT"**  
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6779-6-8

9 789943 677968